

# TERMIZ UNIVERSITETI

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-badiiy gazeta

BESHIKDAN QABRGACHA ILM IZLA!

1990-yil may oyidan chop etila boshlagan



№ 7 (361)-son, 2024-yil 16-may, payshanba



QR kodni skaner qilib,  
TerDU web-sahifasiga o'ting!



REKTOR ABDUQODIR TOSHQULOV:

Tafsilot

## 2024/2025-O'QUV YILIDAN FAN O'QITUVCHISINI TANLASH MEXANIZMI JORIY ETILADI

Rektor rahbarligida xorijiy va respublikamizdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalarining ilg'or tajribalarini universitetda joriy etish hamda TerDUni har bir jabhada yuqori darajalarga olib chiqish masalalari yuzasidan kengaytirilgan yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilishda bir hafta davomida respublikamizdagi ilg'or xorijiy – Vebster, Inha, Turin politexnika universitetlari, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va boshqa OTMLar tajribasini o'rganib qaytgan mas'ul rahbarlardan iborat ishchi guruh taqdimoti tinglandi.

Rektor: O'quv jarayoniga ta'limning kredit tizimini joriy qilishni kuchaytirish orqali universitetni jahonning nufuzli universitetlari qatoriga kirishini ta'minlashimiz zarur. Mazkur tizimga o'tishni barcha professor-o'qituvchilar o'zlarining bosh maqsadi etib belgilab olishlari shart.



(Davomi 2-sahifada) >>>

## QALBLARNI YASHNATGAN «BOYSUN BAHORI»

Hammasi xalqaro folklor festivali haqida



(4-sahifaga qarang) >>>

## ULUG' USTOZLAR - E'ZOZDA!

(5-sahifaga qarang) >>>

## ADABIY-MA'RIFIY UCHRASHUV

(8-sahifaga qarang) >>>

Xushxabar

SPORTCHI

TALABAMIZ – G'OLIB!

Toshkent viloyatining Angren shahrida parayengil atletika bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida Termiz davlat universiteti talabasi birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Sport faoliyati va boshqaruvi fakulteti 3-bosqich sirtqi ta'lim yo'nalishi talabasi Azizbek Eshmatov 400 metrga yugurish bo'yicha 1-o'rin, 100 metrga yugurish bo'yicha 3-o'rinni egalladi.

Talabamizni ushbu muvaffaqiyati universitetimizning 70 yillik to'yiga yana bir munosib to'yona bo'ldi! Rahmat senga, Azizbek!

Behruz AZAMATOV,

Sport faoliyati va boshqaruvi fakulteti talabasi.



Ta'lim yangiliklari

### DAVLAT GRANTI QANDAY TAQSIMLANADI?

Yangi tartibga ko'ra, muayyan bir yo'nalishga ajratilgan davlat granti doirasida yuqori ball to'plagan abituriyent, tanlagan oliy ta'lim muassasasidan qat'i nazar, davlat grantiga tavsiya etiladi. Ya'ni, yuqori ball olgan yoshlar o'qishga kirmay qolmaydi.

Ma'lumot uchun, amaldagi tartibga ko'ra, ayrim abituriyentlar yuqori ball to'plasa-da, topshirgan oliygohining kvotasi soniga qarab, o'qishga kirolmay qolishi mumkin edi.

### 3 YIL ISHLAB BERISH MAJBURIYATI BEKOR QILINADI

Taqdimotda shuningdek, oliygohlarga o'qishga qabul qilish jarayonlari bo'yicha quyidagilar taklif qilindi:

o'qishga kirish uchun minimal o'tish bali 2 bosqichda oshirilib, sog'liqni saqlash, huquq, biznes va boshqaruvi yo'nalishlari uchun – 94,5 ball, boshqa yo'nalishlar uchun – 75,6 ball etib belgilanadi (amalda barcha yo'nalishlar uchun – 56,7 ball);

davlat granti talabalar uchun ta'lim granti va ijtimoiy-rag'batlantiruvchi grant shaklida ajratiladi. Bunda:

ta'lim granti – talabalarga bir o'quv yili uchun ajratiladi hamda 1-kursda o'qishga kirish natijalari bo'yicha, 2-kursdan boshlab reyting ko'rsatkichlari bo'yicha eng yuqori ball to'plagan talabalarga ajratiladi;

ijtimoiy-rag'batlantiruvchi grant – maqsadli qabul va imtiyoz asosida qabul qilingan talabalarga butun o'qish davri uchun beriladi;

ta'lim granti asosida tahsil olgan talabalar o'qishni tugatgandan so'ng 3 yil ishlab berish majburiyati bekor qilinadi;

sirtqi ta'lim shakli uchun kvotalarni kunduzgi ta'lim shakli uchun ajratilgan kvotadan oshirmaslik belgilanadi.

Qayd etilganidek, sirtqi ta'lim shakli bosqichmas-bosqich masofaviy ta'lim shaklini kengaytirish va uzaytirilgan ta'lim shakli joriy etish orqali tugatiladi.

### CHET TILI SERTIFIKATI BO'YICHA YENGILLIKLAR

Anjumanda qayd etilganidek, topshiriqqa binoan magistratura va doktoranturaga qabul qilishda xorijiy tilni bilish to'g'risidagi sertifikat talabi quyidagicha o'zgartiriladi:

ta'lim dasturini xorijiy tilda yakunlagan talabalar uchun sertifikat talabi bekor qilinadi;

soha xususiyatidan kelib chiqib madaniyat, san'at, sport, ta'lim, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish, muhandislik ishi, qishloq xo'jaligi, veterinariya, arxitektura va qurilish, fizika va tabiiy fanlar, transport xizmatlari yo'nalishlari bo'yicha sertifikat talabi bir pog'ona – B1 darajasiga tushiriladi.

Sertifikat talabi xorijiy tillar yo'nalishlarida C1 darajada, aniq fanlar, biologiya, matematika, huquq, jurnalistika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va iqtisodiyot yo'nalishlarida B2 darajada saqlanadi.

### OTMLARGA QABUL – 2 BOSQICHDA!

Anjumanda shuningdek, oliygoh hamda kollej va texnikumlarga qabul qilish imtihonlari "avval test, so'ng tanlov" tamoyili asosida o'tkazilishi bo'yicha batafsil ma'lumot berildi.

Bunda: abituriyentlar testni 1 marotaba topshiradi va to'plagan bali bilan dastlab oliygohga, bali oliygohga yetmagan taqdirda, professional ta'lim tashkilotiga kirish uchun tanlovda ishtirok etadi;

oliygohlarga qabul jarayoni 2 bosqichda: 1-bosqich ro'yxatdan o'tish va test fanlarini tanlash;

2-bosqich oliygoh – test natijasi e'lon qilingandan so'ng ta'lim yo'nalishi va shaklini tanlash orqali amalga oshiriladi.

edu.uz



**(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)**

Shuningdek, mas‘ul rahbarlar hamda professor-o‘qituvchilar oldida turgan eng muhim vazifalar belgilab olindi:

- nufuzli xorijiy oliy ta‘lim va ilmiy muassasalarda ta‘lim olgan, malaka oshirgan, ilmiy darajalarini himoya qilgan iqtidorli pedagog kadrlar hamda amaliy ish tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislarni ta‘lim jarayoniga keng jalb qilish;
- xalqaro reytinglarda nufuzli o‘rinlarni egallagan xorijiy hamda yetakchi respublika oliy ta‘lim muassasalari bilan talabalar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy-izlanuvchi olimlarning almashinuv dasturlarini keng joriy qilish;
- 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab fan o‘qituvchilarini tanlash mexanizmini joriy etish;

**Tafsilot**



**REKTOR ABDUQODIR TOSHQULOV:  
2024/2025-O‘QUV YILIDAN FAN O‘QITUVCHISINI  
TANLASH MEXANIZMI JORIY ETILADI**

- talabalar uchun barcha turdagi xizmatlarni ko‘rsata oladigan registrator ofisi xizmatlarini tashkil etish;
- xorijiy universitetlarning fan dasturlarini o‘rganish va qo‘llash;
- HEMIS tizimi imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish, shuningdek, talaba bilan muloqotni to‘liq tizim orqali olib borish;
- Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

824-son Qarori bo‘yicha muntazam seminarlar tashkil etish va uning ijrosini ta‘minlashni nazorat qilish;

- ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish va unga barcha talabalarni qamrab olish;
- Talabalarni sportga jalb qilish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida sport turlari bo‘yicha “Dekan kubogi” va “Rektor kubogi” musobaqalarini tashkil etish.

**Odiljon HAMIDOV,**  
Universitet Kengashi kotibi.

**REKTOR – AUDITORIYADA**

Rektor A.Toshqulov tabiiy fanlar fakultetining bir guruh talabalariga mahorat darsini o‘tib berdi.

Erkin va rasmiy formatdan yiroq bo‘lgan ushbu uchrashuvda talabalarga Vatan rivojiga hissa qo‘shish, harakat va qat‘iylikka intilish, o‘z ustida izlanish, xorijiy OTM muassasalarida ta‘lim olish,

hayotni o‘zgartirishga undovchi eng sara asarlarni mutolaa qilish bo‘yicha zarur tavsiyalarini berdi.

– O‘z bilimingiz, salohiyatingiz, tashabbuskorligingiz, innovatsion g‘oyalaringiz bilan mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishingiz uchun universitet sizni hamisha qo‘llab-

**Mahorat darsi**

quvvatlashga tayyor, – dedi A.Toshqulov.

Rektor talabalarining fikrlash doirasi, orzu va maqsadlari bilan tanishib, ularning jamiyat, hayot to‘g‘risidagi tushunchalari, yangi tashabbus va g‘oyalarini tingladi.

**Sherali XOLMAMATOV,**  
Tabiiy fanlar fakulteti talabasi.

**AKADEMIK VA TALABALAR UCHRASHUVI**

Termiz davlat universitetida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori, Oliy majlis Senati a‘zosi, akademik Azamat Ziyov bilan uchrashuv tashkil etildi. Universitet rektori ochib

bergan ushbu tadbirda tarixchi olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar hamda talabalar ishtirok etishdi.

Mazmunli kechgan uchrashuv davomida

**Yuzma-yuz**

vatanparvarlik va fidoyilik kabi mavzularda suhbat olib borilib, akademik tomonidan talabalarga kerakli tavsiyalar berildi.

**Muzaffar AKBAROV,**  
Tarix fakulteti talabasi.

**QISQA XABARLAR**

Termiz davlat universitetida faoliyat yuritayotgan 51 nafar tyutorlarning malakasini oshirish maqsadida o‘quv kurslari olib borilmoqda.

Maxsus seminarlar tashkil etilib, malakali trenerlar tomonidan “Yangi Konstitutsiya va yoshlar siyosati”, “Yangi O‘zbekistonda ta‘lim sohasidagi islohotlar”, “Besh muhim tashabbus – yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish mexanizmi”, “Axborot xurujlari va mediamadaniyat” kabi mavzularda jami 42 soatlik ma‘ruzalar o‘tilmoqda.

Termiz davlat universitetida 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan futbol bo‘yicha o‘rtoqlik uchrashuvi o‘tkazildi. “Surxon U19” va “TerDU” jamoalari o‘rtasida kechgan bahsli o‘yinni rektor boshchiligidagi futbol ishqibozlari zavq bilan tomosha qilishdi. G‘oliblik esa o‘yin boshidanoq ustunlikni qo‘lga olgan “TerDU” jamoasi futbolchilariga nasib etdi.

Xalqaro THE reytingida 601-o‘rinda turuvchi Germaniyaning Magdeburg universiteti professori, vatandoshimiz Akmal Sohobov nemis tili ta‘lim yo‘nalishidagi bitiruvchi talabalarimizga mahorat darsini o‘tib berdi. “Anerkennung uzbekischer Hochschulabschlusse in Deutschland” mavzusidagi noan‘anaviy tarzda o‘tilgan dars mashg‘ulotini talabalar katta qiziqish bilan tingladi. Savol-javobga boy bo‘lgan dars yakunida talabalarga mavzu yuzasidan

qo‘shimcha adabiyotlar, internet nashrlari tavsiya etildi.

9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Termiz davlat universitetida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar va ishchi-xodimlar o‘rtasida shaxmat musobaqasi tashkil etildi. Qiziqarli va murosasiz bahslarga boy bo‘lgan bellashuv yakunlariga ko‘ra erkak ishtirokchilar quyidagi natijalarni ko‘rsatishdi: 1-o‘rin: Jo‘rabek Bozorov (Fizika–matematika fakulteti); 2-o‘rin: Yo‘lchi Abduraimov (Fizika–matematika fakulteti); 3-o‘rin: Asomiddin Himoyiddinov (Rus va qardosh fakulteti). Ayollar o‘rtasida: 1-o‘rin: Xolniso Saydaliyeva (4-TTJ tarbiyachisi); 2-o‘rin: Nargiza Shaymatova (Iqtisodiyot va turizm fakulteti); 3-o‘rin: Dilfuza Muqimova (Tabiiy fanlar fakulteti).

Universitet ilmiy majmuasi tashabbusi bilan ijtimoiy fanlar fakulteti professor-o‘qituvchilari uchun xorijiy ilmiy-tadqiqot grant tanlovlari, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari, mahalliy va xalqaro loyihalar hamda xalqaro ilmiy-texnik ma‘lumotlar bazalaridan foydalanish kabi mavzularda seminar-trening tashkil etildi. Seminar ishtirokchilariga universitet pedagog xodimlarining mehnat samaradorligini belgilovchi tizim – KPI (Key performance indicator)ning “ilmiy-innovatsion faoliyat” qismi bo‘yicha tushunchalar berildi. Ma‘lumot uchun, bu kabi treninglar universitetning har bir fakultetida o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

**TerDU Matbuot xizmati**

**“ILMIY-TADQIQOT MARKAZI”  
MOLIYALASHTIRILADI**

Universitetda ilm-fanni rivojlantirish maqsadida laboratoriyalar faoliyatini kengaytirish, ularning moddiy texnik bazasini boyitishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Ana shu maqsadda rektor A.Toshqulov Xitoyning Shimoli-g‘arbiy universiteti Madaniy meros instituti direktori, Xitoy-Markaziy Osiyoda Inson va atrof-muhit “Bir kamar va bir yo‘l” xalqaro qo‘shma arxeologik ekspeditsiyasi rahbari Ma Jianni qabul qildi.

Uchrashuvda TerDUning yangi 750 o‘rinli “Ilmiy-tadqiqot markazi”da arxeologik ilmiy-amaliy laboratoriyasini shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar taqdimot qilindi.

Hamkorlikka ko‘ra, markazga talabalarining nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beruvchi qiymati 400 ming AQSH dollarli paleobotanika, paleozologiya,

**Xalqaro hamkorlik**



antropologiya, sopol, metallar ustida kimyoviy tadqiqot olib boruvchi va restavratsiya laboratoriya jihozlari o‘rnatiladi.

Eslatib o‘tamiz, Termiz davlat universiteti va Shimoli-g‘arbiy universiteti o‘rtasida 2019 va 2024-yillarda memorandum va 2023-yilda shartnoma imzolangan.

**G‘afur TOG‘AYEV,**  
Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor.

**Jarayon**

Termiz davlat universiteti rektori A.Toshqulov Boysun tumani Mustaqillik va “Chorchinor” mahallasidan o‘ziga biriktirilgan yoshlar bilan ochiq muloqot o‘tkazib, ularning muammolarini tingladi.

Samarqand hamda Buxoro viloyatlariga sayohat tashkil etish rejalashtirildi.

Mazkur uchrashuv Davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston – 2030”

**“CHORCHINOR”DA UCHRASHUV**

Muloqot davomida yoshlar, tadbirkorlik, o‘zini-o‘zi band qilish bilan shug‘ullanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish hamda ijtimoiy iqtisodiy muammolarini hal etish masalalarida murojaat qilishdi. A.Toshqulov har bir murojaat bo‘yicha tegishli mutasaddilarga topshiriq berib, ijrosi bo‘yicha aniq muddat belgilab berdi. Shuningdek, ular uchun

strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonida ko‘zda tutilgan alohida ishlash talab etiladigan yoshlarni mas‘ul rahbarlarga nomma-nom biriktirish amaliyotini joriy etish vazifasi ijrosini ta‘minlash maqsadida tashkil etildi.

**O‘z muxbirimiz.**

**2000 NAFAR TALABA VA “MILLIY QADRIYATLAR SAYLI” JOZIBASI**



Termiz davlat universitetida 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan “Milliy qadriyatlar sayli” o‘tkazildi.

Saylda talabalar o‘z iqtidor va qiziqishiga qarab “Osh chempionati”, “TerDU malikasi” tanlovlari, “Arqon tortish”, “Kuch sinashish”, “Tosh ko‘tarish” musobaqalari va “Milliy kiyimlar namoyishi” ko‘rgazmasida ishtirok etib, bor kuch va mahoratini namoyish etishdi.

– Bu kabi tadbirlar yoshlar hayotida nihoyatda katta ahamiyatga ega. Agar kuzatgan bo‘lsangiz, milliy qadriyatlar, urf-odat va ajdodlarga hurmat ruhida ulg‘aygan yoshlar hayotda ham katta natijalarga, muvaffaqiyatlarga erishib kelyapti. Bugungi tahlikali zamonda, ularni bir daqiqa ham bo‘sh qoldirmasligimiz zarur, – dedi rektor A.Toshqulov.

Yakuniy qismdan o‘rin olgan konsert dasturi ham talabalarga birdek manzur bo‘ldi. Milliy va zamonaviy qo‘shiqlarga raqsga tushgan yoshlarning yana bir kuni mazmunli nihoyalandi.

G‘oliblar hamda faol ishtirokchilar diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanishdi.

**Izzatullo TOLIPOV,**  
TerDU Yoshlar ittifoqi boshlag‘ich tashkilot yetakchisi.



## FILOLOGLAR IZDIHOMI

**Termiz davlat universitetida “Tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimonlikni rivojlantirish muammolari va istiqbollari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.**

Unda Rossiya, Tojikiston, Qozig‘iston, Belarussiya, Polsha mamlakatlari olimlari, Respublika OTMLaridan ishtirok etgan professor-o‘qituvchilar tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikni rivojlantirish sohasidagi ilmiy yutuqlarni ko‘rsatish, ilmiy tadqiqot natijalarini ta‘lim amaliyotiga integratsiyalashning samarali mexanizmlarini izlash

masalalarini muhokama qilishdi.

– Zamonaviy, jadal rivojlanayotgan kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalari dunyosida baʼzilar til va adabiyot o‘z ahamiyatini yo‘qotgan deb o‘ylashadi, ammo bu haqiqatdan uzoqdir, – dedi konferensiyada ishtirok etgan rektor A.Toshqulov.

Konferensiya o‘z ishini 4 ta sho‘bada davom ettirib, ularda rus tili nazariyasi va tarixi, klassik rus adabiyoti bo‘yicha ishtirokchilar tomonidan ma‘ruzalar qilindi.

**Nasiba XO‘JANOVA,**  
“Termiz universiteti” muxbiri.



Tatbiq

## DARBANDDA AMALIYOT!

**Termiz davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti biologiya ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich talabalari botanika kafedrasida professor-o‘qituvchilari rahbarligida Boysun tumanidagi “Darband o‘quv amaliyot markazi”da o‘quv mashg‘ulotini olib borishdi.**

Talabalar “O‘simliklar qoplamiga geobotanik tavsif berish”, “Dorivor o‘simliklarni tur-xillarini aniqlash”, “Tog‘, adir, yaylov o‘simliklari, ularning morfologiyasi, tarqalishi va ekologiyasi” mavzulari doirasida yangicha yondashuv asosida dorivor va kamyob o‘simliklarni o‘rganishdi hamda nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

**Sirojiddin ALLAYAROV,**  
Zoologiya kafedrasida o‘qituvchisi, (PhD).

## Ro‘baro‘ EKOPARTIYA RAISI BILAN SUHBAT

**Termiz davlat universitetida “Yoshlar va ekologiya” mavzusida davra suhbat tashkil etildi.**

Unda O‘zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy Kengashi raisi Abdushukur Xamzayev, universitet rektori Abduqodir Toshqulov, partiya faollari hamda o‘qituvchi va talabalar ishtirok etishdi.

Davra suhbatida ekologik ta‘lim va qonunchilik, yoshlarning tabiatni muhofazalashga oid loyihalarda faolligini oshirish, bu borada davlat, jamoat tashkilotlari va ta‘lim muassasalarining hamkorligini yanada kuchaytirish, atrof-muhit muhofazasida yoshlarning o‘rni haqida so‘z yuritildi.

**Aziza MAHMUDOVA,**  
Milliy libos va san‘at fakulteti talabasi.



## TAHLIL OILA PSIXOLOGIYASI

**Termiz davlat universitetida “Oilada destruktiv munosabatlar psixoprofilaktikasi va psixokorreksiyasi: muammo va yechimlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi.**

Bugungi kunda zamonaviy psixologik tadqiqotlar: muammolar, yechimlar, istiqbollari sohasida erishilayotgan yutuqlarni umumlashtirish, ularni mamlakatimizning taraqqiy etishiga yo‘naltirish, oila mustahkamligini ta‘minlashga innovatsion-psixologik yondashuvlar, ijtimoiy psixologik muammolarni bartaraf etishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini o‘rganish anjumaning asosiy maqsadi qilib olingan.

Ushbu konferensiyada 4 ta sho‘ba asosida xorijiy oliy ta‘lim muassasalaridan 10 nafar, respublikamizdagi oliy ta‘lim muassasalaridan 100 nafarga yaqin professor-o‘qituvchilar oflayn va onlayn tarzda o‘z ma‘ruzalari bilan qatnashib, yakunda sho‘balar asosida o‘z taklif va tavsiyalarini berishdi.

**Mahliyo SATTOROVA,**  
Psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi, (PhD).



## Anjuman TRIGGER LOYIHASI DOIRASIDA...

**Termiz davlat universitetida “Markaziy Osiyo sharoitida universitet bitiruvchilarini ishga joylashtirishda TRIGGER loyihasining targ‘ibot faoliyati” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazildi.**

Unda TerDU xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektori, Markaziy bank Surxondaryo viloyati bosh boshqarmasi xodimlari, hamkor oliy ta‘lim muassasalari vakillari, professor-o‘qituvchilar ishtirok etib, loyiha doirasida atroflicha so‘z yuritishdi.

Konferensiyada dastlab TRIGGER loyihasi doirasida TerDUda amalga oshirilgan ishlar samaradorligi, natijalari bilan tanishtirildi. Shuningdek, ma‘ruzachilar “Tadbirkorlik ta‘limi va ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha tajribalar”, “Talabalarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirish”, “Raqamli texnologiyaning afzallik va kamchiliklari” mavzularida ma‘ruzalar qilishdi.

**Otabek ESHQUVVATOV,**  
Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabasi.

## PROFILAKTIKA MUHIM!

**Termiz davlat universiteti ijtimoiy fanlar hamda iqtisodiyot va turizm fakultetlarida “Korrupsiyaga qarshi kurashish”, “Yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish”, “Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish” mavzularida davra suhbat o‘tkazildi.**



## Biz korrupsiyaga qarshimiz

Uchrashuvlarda talabalarga mazkur illatning salbiy oqibatlarini tushuntirildi. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish jarayonlariga talabalarni ham keng jalb etish, uni butunlay yo‘q qilishda barcha birdek harakat qilishi lozimligi ta‘kidlandi.

**Abdulla MANSUROV,**  
Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi bosh mutaxassisi.



## QALBLARNI YASHNATGAN «BOYSUN BAHORI»

### Hammasi xalqaro folklor festivali haqida

“Boysun bahori” xalqaro folklor festivali unutilmas taassurotlar bilan boshlandi. Termiz xalqaro aeroporti va Boysun temir yo‘l vokzalida festival mehmonlarini tantanali kutib olindi.

Bir tomonda havo sharlari uchirish tadbirlari, velo marafon musobaqalari o‘tkazilayotgan bo‘lsa, yana bir tomonda esa milliy taomlar ko‘rgazmasi turli qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz namoyish etilmoqda.

Bularning barchasi xorijlik sayyohlarning “Ochiq osmon ostidagi muzey” hisoblangan Boysun tumaniga bo‘lgan qiziqishlarining oshishiga sabab

bo‘lmoqda.

Kun davomida o‘tkazilgan xorijlik folklor jamoalarning chiqishlari, milliy hunarmandchilik ko‘rgazmalari, gala konsert kabi qator tadbirlar mehmonlarga bayramona kayfiyat baxsh etdi.

E’tiboringizga mazkur festivalning eng qiziq lahzalari aks etgan fotojamlanmani havola etamiz.

**Shukrullo TOSHPOLATOV,**  
TerDU rektorining axborot siyosati  
masalalari bo‘yicha maslahatchisi – matbuot  
kotibi v.b.



Muallif olgan suratlar.

## SURXON – BUYUK TAMADDUN BESHIGI

**“Surxon vohasining insoniyat sivilizatsiyasidagi o‘rni: moddiy va nomoddiy madaniyat asoslari”.**  
**“Boysun bahori” xalqaro folklor festivali doirasida Termiz davlat universitetida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ana shu mavzuga bag‘ishlandi.**

To‘rtinchi bor o‘tkazilayotgan mazkur xalqaro ilmiy anjumanda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori, akademik Azamat Ziyov, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori, professor G.Rixsiyeva hamda Fransiya, Chexiya,



Yangi Zelandiya, Britaniya, Xitoy, Tojikiston, Ozarboyjon kabi o‘nga yaqin davlatlardan

30 nafarga yaqin xorijlik olimlar va respublikamizning turli hududlaridan tashrif

buyurgan ilm-fan vakillari ishtirok etishdi.

Anjumanda so‘z olgan olimlar Surxon vohasining inson sivilizatsiyasidagi o‘rni, bu zamin juda boy tarixiy va madaniy yodgorliklarni o‘zida mujassam etishi va bugungi kunda izchil rivojlanayotgan voha ekanligini alohida e’tirof etishdi. Ayniqsa, YUNESKOning e’tiboriga tushgan Boysun tumani “Insoniyatning og‘zaki va nomoddiy merosi durdonasi” sifatida tan olinishi ta’kidlandi.

– Boysunning “etno”si betakror. U “Ochiq osmon ostidagi muzey”. Insoniyatning ibtidosi shu yerda, – deydi Termiz davlat universiteti rektori Abduqodir Toshqulov. – Dunyo o‘quvchilari Teshiktoshni biladi. Teshiktoshni o‘qib ulg‘ayishadi. Boysun

fenomeniga yana bir mo‘jiza qo‘shildi. “Yerosti Everesti” shu yerda joylashgan. U dunyodagi eng chuqur, Krubera g‘oridan (Gruziya) qariyb 500 metr chuqur bo‘lib, 2 ming 650 metrni tashkil qilmoqda.

Konferensiya o‘z ishini to‘rtta: “Surxondaryo – buyuk tamaddun beshigi”, “O‘rta asrlarda Surxon vohasining moddiy va nomoddiy madaniyati”, “Voha aholisining nomoddiy madaniyatida an’anaviylik va zamonaviy ko‘rinishlari” hamda “Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti” shobalarida davom ettirdi.

**Asror ABDUQAYUMOV,**  
Arxeologiya kafedrasini  
mudiri, tarix fanlari nomzodi,  
dotsent.



Marosimga uzoq yillar davomida ko'z nuri, qalb qo'ri shu universitet rivoji, ta'lim taraqqiyotiga sarflagan keksa-nuroniylar hamda ushbu sohaga mehnati singgan 150 nafar fidokor professor-o'qituvchilar taklif etildi.



Ta'zim

## ULUG' USTOZLAR – E'ZOZDA!

**Termiz davlat universiteti rahbariyati tashabbusi bilan shonli sana oldi o'tganlarni xotirlash va hayot bo'lgan keksalarni qadrlash tadbiri tashkil etildi.**

Tadbirda bugungi dorilomon kunlarning qadri, ezgu tashabbuslar, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim sohasidagi yangiliklar xususida suhbatlar qilinib, mehnat faxriylariga chuqur hurmat izhor etildi.

Marosimga uzoq yillar davomida ko'z nuri, qalb qo'ri shu universitet rivoji, ta'lim taraqqiyotiga sarflagan keksa-nuroniylar hamda ushbu sohaga mehnati singgan 150 nafar fidokor professor-o'qituvchilar taklif etildi.

Dasturxon atrofida duoga qo'l ochilib, ta'lim-tarbiya yo'lida sidqidildan xizmat qilgan marhum ustozlar, hamkasblar va soha vakillari yodga olindi.

TerDU Matbuot xizmati



## “YOSHLARGA AYTAR SO‘ZIM...”

**9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Termiz davlat universitetining bir guruh mas'ullari II Jahon urushi qatnashchisi Shohimardon Hamroyevning xonadonida bo'lishdi.**

### Ibrat

yoshni qarshilagan Shohimardon Hamroyev 11 nafar farzand, 48 nafar nevara, 70 nafar chevvara va 7 nafar evaralari e'zozida umrguzaronlik qilmoqda.  
– Men Shohimardon Hamroyev, 4 yil umrim urush jangohlarida kechdi. Kimlar uchundir qisqa fursatdek tuyulgan bu yillar davomida kechgan urushning dahshatini butun umrim



Endigina 18 yoshni qarshilagan boysunlik Shohimardon Hamroyev umrining eng gullagan yillarini II Jahon urushining olovli jangohlarida o'tkazadi. U dahshatli urush jarayonida Varonej, Latviya, Litviya, Estoniya kabi davlatlarni dushmandan ozod qilishga o'z hissasini qo'shgan. Vataniga qaytgan qahramon pedagogika sohasida o'qishni tamomlab, 40 yil davomida Boysun tumanidagi maktabda rus tili fanidan dars berib keldi. Shu zahmatli kasbi ortidan “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi” nishoni bilan taqdirlandi. Ayni paytda 103

davomida unutilmadim. Hatto hozir ham o'sha voqealar ko'z o'ngimda gavdalanaveradi. Goh tushimda, goh o'ngimda safdoshlarimni ko'raman... o'sha kunlarni eslarkanman, shunday tinch zamonda yashayotganimga shukur qilaman, aslida odamzod uchun tinchlik, totuvlikdan qadrliroq ne'mat yo'qligini, davrning o'zi ko'rsatib turibdi. Yoshlarga aytar so'zim: ko'p o'qinglar! Zamon hamisha o'qiganniki! – deydi qahramon bobo.

**Jamshid NAZAROV,**  
O'zbek filologiyasi fakulteti tyutori.



### Vazir kubogi

instituti)  
3-o'rin S.Egamberdiyev (TerDU), S.Mengto'rayev (TerDU)  
Qizlar o'rtasida kechgan bahslarga ko'ra:  
**52 kg vazn toifasida**  
1-o'rin U.Mamarajapova (Termiz davlat pedagogika instituti)  
2-o'rin S.Niyozova (TerDU)  
3-o'rin A.Qurbonova (TerDU), K.Bo'riyeva (TerDU)  
**63 kg vazn toifasida**  
1-o'rin X.Abduvohidova (TerDU)

## POLVONLARIMIZ NAVBATDAGI BOSQICHDA!

**Yoshlarning kurash sportiga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida Surxondaryo viloyatidagi Oliy ta'lim muassasalari talabalar o'rtasida kurash bo'yicha “Vazir kubogi” musobaqasining hududiy bosqichi o'tkazildi.**

Gilamda 120 nafardan ziyod yosh polvon yigit-qizlar jami 7 ta vazn toifasida o'zaro bellashishdi. G'oliblarni TerDU rektori A.Toshqulov taqdirladi va musobaqaning keyingi bosqichida sharaflari o'rinlarni egallashlariga ishonch bildirdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra:  
**66 kg vazn toifasida**  
1-o'rin D.Egamonov (Termiz davlat pedagogika instituti)  
2-o'rin I.Ergashev (TerDU)  
3-o'rin M.To'raqulov, M.Abdurahmatov (TerDU)  
**73 kg vazn toifasida**  
1-o'rin D.Norqobilov (TerDU)  
2-o'rin E.Hikmatullayev (TerDU)  
3-o'rin M.Xurramov



(TerDU), D.Xalilov (TerDU)  
**81 kg vazn toifasida**  
1-o'rin A.Abdulxatov (Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti)  
2-o'rin J.Ahmedov (TerDU)  
3-o'rin M.Erkinov (TerDU), X.Jo'rayev (Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti)  
**+81 kg vazn toifasida**  
1-o'rin J.Mamatrahimov (TerDU)  
2-o'rin X.Mamajonov (Termiz davlat pedagogika

2-o'rin G.Abduvohidova (TerDU)  
3-o'rin Sh.Xonto'rayeva (TerDU), R.Jumayeva  
**+63kg vazn toifasida**  
1-o'rin Y.Ro'ziboyeva (TerDU)  
2-o'rin S.To'rayeva (TerDU)  
3-o'rin J.To'raboyeva (TerDU), Y.Ustoyeva (TerDU)  
**Ilyos HASANOV,**  
Sport faoliyati va boshqaruvi fakulteti dekani.



## MAXTUMQULI DAHOSIGA EHTIROM

Maxtumquli #300\_yillik

Sharq adabiyotining ziynati sifatida tavsiflanadigan donishmandlik, jo‘mardlik, sadoqat, vatanparvarlik, odob-axloq, andisha, sharm-hayo, go‘zallik zamiridagi falsafa hamda diniy-irfoniy ruh, Aloh ishqi va bandani kamolotga yetaklovchi

inson zehniyati, his-tuyg‘ulari va xulqining beminnat tarbiyachisi o‘laroq e‘tirof etiladi, – dedi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanga raislik qilgan Termiz davlat universiteti rektori, professor Abduqodir Toshqulov tabrik so‘zida.



Shundan so‘ng Turkmanistonning O‘zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va Muxtor Elchisi Shodurdi Maredov so‘zga chiqib, o‘zbek va turkman xalqlari o‘rtasida asrlar davomida saqlanib kelayotgan do‘stlik rishtalarining siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy hamda strategik jihatdan muhim ekanligini, do‘stona aloqalarning tobora mustahkamlanishida har ikki qarodosh millat prezidentlarining ulkan hissalarini mavjudligini e‘tirof etdi. Buning yorqin misoli sifatida o‘zbek va turkman xalqlarining sevimli shoiri Maxtumquli Firog‘iy

motivlar – “insonni insondek ko‘rmoq orzusi” – dunyo xalqlari ma‘naviy hayoti va poetik tafakkurining yuksalishidagi muhim faktorlarning biridir.

Ona Sharq adabiyoti sahifalarida olam ichra olam yaratgan qator so‘z san‘atkorlari borkim, ularning umrboqiy asarlari bugungi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Turkiylarning benazir shoirlaridan biri – qarodosh turkman xalqining buyuk farzandi Maxtumquli Firog‘iy qoldirgan mislsiz ijodiy meros ham yuksak badiiyat namunalari sirasida o‘z e‘tirofini topayotir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyovning 2024-yil 19-fevraldagi “Buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorini shoir fenomeniga ko‘rsatilgan yuksak ehtirom namunasi o‘laroq talqin qilish mumkin.

Termiz davlat universiteti boshlab bergan “Maxtumquli – do‘stlik kuychisi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman mazkur qarorda ko‘zda tutilgan chora-tadbirlar bilan uyg‘un tarzda kechdi.

Anjumanda diplomatik korpus vakillari, xorijlik mehmonlar, taniqli olimlar, shoir-yozuvchilar, Maxtumquli tarjimonlari, ilmiy tadqiqotchilar, talaba yoshlar va universitet professor-o‘qituvchilari ishtirok etdi. Shuningdek, Turkmaniston, Shvesiya, Ozarboyjon, Turkiya, Qozog‘iston, Afg‘oniston, Tojikiston kabi qator davlatlarning yigirmadan ortiq oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlari vakillari, taniqli olimlar jarayonni onlayn ravishda kuzatib bordi.

– Turkiy xalqlarning fenomenal shoiri Maxtumquli Firog‘iy ijodi necha avlod qarodosh millatlar ma‘naviy hayotida mustahkam o‘rin tutayotgani – ayni haqiqatdir. Shoirning ulkan iste‘dod, bemsiz quvvai hofiza va ifoda yo‘sin bilan tarannum etgan g‘oyalari, xalqona pafos yo‘g‘rilgan har bir she‘ri mumtoz san‘at asari darajasida yuksak va betakroridir. Bunday ijod mahsullari – jahon adabiyotida hodisa sifatida e‘tirof etiladi. O‘zining benazir ijodi bilan dunyo adabiyoti – badiiy so‘z aytish tadrijiga hissa qo‘shgan daho ijodkorlar: Alisher Navoiy, Rudakiy, Firdavsiy, Nizomiy, Gyote, Pushkin, Shekspir, Dante kabi zotlar qatorida Maxtumquli Firog‘iyning ham tabarruk nomi bor. Shu bois ham Maxtumqulining poetik olami barcha zamonlar uchun dolzarb bo‘lib,

tavalludining yurtimiz bo‘ylab yuqori saviyada keng nishonlanayotganligini, xususan qadimiy Termiz shahrida boshlangan tadbirlar o‘ziga xos ramziy ma‘noga ega ekanligini ta‘kidlab o‘tdi.



Shoir ijodida diniy-ma‘rifiy falsafa yetakchilik qiladi. Maxtumquli she‘riyat “Oshni chap qo‘lda emas, o‘ng qo‘lda ye!” qabilidagi quruq pand-nasihatlardan iborat emas, aksincha uning poeziyasida o‘z davri uchun mutlaqo yangi sanalgan original ifoda tarzi, muallifning pok badiiy niyati, she‘rning uzviy va turfa ichki ohanglari, hissiy gradatsion birliklar, shakl va mazmun uyg‘unligi, yuksak badiiyat unsurlari, eng muhimi, daho ijodkorlarga xos nazar sezilib turadi.

– Maxtumquli o‘z davrining ijtimoiy hayoti bilan yashagan, ijtimoiy-siyosiy tarix voqealari u zotning she‘rlarida aks etgan. Uning she‘rlarida bir qancha siyosiy arboblar munosabatlari ham ifodalangan. Maxtumquli “Jayhun bila Bahri Hazar orasi” deya turkman elining siyosiy chegarasini ham belgilab bergan zotdir. Lekin Muxtumqulining bosh g‘oyasi va ijodining o‘zagi – ma‘rifat, ishqi Ilohiy, oxirat hozirligi masalalaridir. Shoirning tayangan manbalari esa – Qur‘oni karim, hadisi shariflar va valiy zotlarning hikmatlaridir. Maxtumquli turkman xalqining sharafini

jahon minbariga olib chiqqan buyuk shaxs, barcha turkiy xalqlarning sevimli shoiri, ulug‘ ma‘rifat va ma‘naviyat rahnamosidir! Qur‘ondan nur olgan she‘riyat, shubhasiz, o‘lmas she‘riyatdir, – dedi Maxtumquli she‘riyatining tarjimoni O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, taniqli adib Mirzo Kenjabek.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkiliy qo‘mitasiga 150 dan ortiq maqolalar taqdim etilganligi hamda jahon va respublikamizning yetuk adabiyotshunos olimlari, professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodimlari, magistrantlarining ilmiy tadqiqot natijalari tartib berilganligining o‘ziyoq anjumanga ilmiy doira vakillarining nechog‘liq keng qamrovda jalb etilganligidan dalolat beradi.

– Maxtumquli she‘rlarida ko‘ngil tilga kirib so‘zlaydi: “Ko‘ngil aytar: sayr etib, olam-jahoni ko‘rsam”, “Ko‘ngil der: xalqdan uzilib, Kezsam tog‘- u toshlar bilan” yoki “Ko‘ngil aytar: yo‘ldosh bo‘lsam, Oh urgan darveshlar bilan”. Bunday misralarda ko‘ngil moddiylashadi. Shoirning so‘zlayotgan tiliga evriladi. Ba‘zida lirik qahramon ko‘ngil mayli, ma‘naviy-ruhiy kayfiyatini darveshlar davrasini ham qo‘msaydi. Dunyo mohiyatini chuqur anglagan odam yolg‘izlikni, darveshona hayotni, Yaratgan bilan yolg‘iz qolishni istab qoladi. Gohida siqilgan inson ko‘ngliga qil sig‘maydi. Ba‘zan ko‘ngilga koinot-borliq joylanadi, – dedi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori Bahodir Karim shoir ijodida ko‘ngil obrazi mohiyati bayon etilgan “Maxtumqulining ko‘ngli” nomli ma‘ruzasi davomida.

O‘zbekiston Respublikasi Turkman madaniyat markazi raisi, “Do‘stlik” ordeni sohibi Gulzona Avezdurdiyeva, Foryob davlat unversitetining o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti Ehsonulloh Quvonch kabi qatnashchilar ham ma‘ruzalar qildi.

Shundan so‘ng “Maxtumquli Firog‘iy – Xalqlar do‘stligi kuychisi”, “Maxtumquli Firog‘iy ijodi: o‘zbek-turkman adabiy aloqalari”, “Maxtumquli ijodi lingvopoetikasi”, “Global dunyo va turkiy olam: ilmfan, ijtimoiy-falsafiy masalalar” kabi sho‘balarda kun yakuniga qadar davom etgan ma‘ruzalarda shoir ijodining fan tarmoqlaridagi turli talqinlariga oid ilmiy qarashlar bayon etildi.

Ko‘tarinki ruhda kechgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman nufuzli mehmonlarda va ilm ahlida unutilmas taassurotlar qoldirdi.

**Alibek OMONTURDIYEV,**  
“Termiz universiteti” muxbiri.



Zakovat

## KIMYOGAR KITOBXONLAR BAHSI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning to‘rtinchisi sifatida yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish belgilangan. Hukumat qarori bilan 2020-2025-yillarda tasdiqlangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi ham ayni siyosatning uzviy davomidir.

“Kitobsevar millat” shiori ostida II Respublika “Kitobxonlik haftaligi” respublika bo‘ylab o‘tkazildi. Ushbu tadbirda kimyo fakulteti o‘qituvchilari va talabalari ham faol ishtirok etishdi. Kitobxonlik haftaligi doirasida Axborot resurs markazida zakovat intellektual o‘yini tashkil etildi. Qizg‘in kechgan bahsda 1-kurs 223-guruh talabalari faxrli 1-o‘rinni egallashdi va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi.

**Otabek TURDIMURODOV,**  
Noorganik kimyo kafedrasida o‘qituvchisi.



## Ehtiyoj

## MA'NAVYI MUNOSABATLARNI YUKSALTIRISH BUGUNGI KUN TALABI

Inson o'z ehtiyojlarining mazmun-mohiyatini, ularning qondirilish vositalari va jarayonlarini chuqur o'rganib, tahlil qilib borishlari kerak. Inson ehtiyojlarini qondiruvchi noz-ne'matlarni (tabiat in'omlari, ijtimoiy ishlab chiqarish mahsulotlari) o'rganish, iste'mol va foydalanish qanday natijalarga olib kelishini bilishgina hayot rivojlanishida ijobiy natijalarga yetaklaydi.

Ma'naviy ehtiyojlar ham bundan mustasno emas. Ayniqsa, barkamol avlod tarbiyasida yoshlarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Moddiy ehtiyojlar tiriklik belgisi bo'lsa, ma'naviy ehtiyojlar kishining ijtimoiyligi, insoniyligi belgisidir. Ma'naviyat faqat insonga xos xususiyatdir. Ma'naviyat ruhiy, aqliy, axloqiy qadriyat sifatida millatning, xalqning, har bir shaxsning ichki olami, tafakkur va dunyoqarashi, axloq va odobi, ya'ni barcha insoniy fazilatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Chunonchi, ma'naviyatni inson ichki olamini boyitadigan, uni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, uning imon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch, deb ta'riflanadi.

Bugungi kun milliy g'oyasini shakllantirish va uni rivojlantirishning murakkablik darajasining yuqoriligiga sabab shundaki, hozirda butun dunyo mamlakatlarini qamrab olgan globallashuv jarayoni hayotning barcha sohalariga, jumladan, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy sohalariga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirlarining ortib borishi va bu salbiy ta'sirlar XXI asr kishisida loqaydlik, beparvolik, kosmopolitizm, daxldorlik hissining susayib ketishi, har qanday qadriyatlarga nisbatan umumiy nazar bilan qarash kabi illatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu illatlar esa jamiyat a'zolarining yagona maqsad-muddaolar atrofida birlashish qobiliyatini susayib ketishiga olib kelmoqda.

Aynan shu omillar milliy g'oyani rivojlantirishning ijtimoiy-axloqiy asoslarini izchilik bilan tadqiq etish, ijtimoiy hayotning har bir qatlamiga munosib ijtimoiy-axloqiy tamoyillarni ishlab chiqish zaruratini orttirmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 5-yo'nalishida ma'naviy-ma'rifiy sohada amalga oshiriladigan keng qamrovli faoliyatimizning mazmun-mohiyati, ustuvor yo'nalishlari va asosiy vazifalari aks etgan va bu biz uchun me'yoriy asos vazifasini o'taydi.

Hozirgi davrning talabchan ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlariga javob bera oladigan yangicha dunyoqarash va tafakkur tarzining jamiyat hayotidan chuqur joy olishi, mamlakat hayoti va o'zgarlar faoliyatidan domiy xabardor, jamoatchilik fikrini biladigan va u bilan hisoblashadigan shaxslarni tarbiyalash uchun milliy qadriyatlar sohasiga doir faoliyatni tobora takomillashtirish, miqyosini oshirish lozim.

Buning sababi shuki, XXI asr insoniyat tarixida misli ko'rilgan kashfiyot va ixtirolar asri bo'lmoqda. Agar dastlab ixtiro va kashfiyotlarni amaliyotga joriy qilish uchun 50-100 yil sarflangan bo'lsa, axborotlashgan davrda 10 - 20 va hatto 2 - 3 yilda ulardan foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi. Mavjud bilimlar doirasi shu darajada kengaydiki, bu axborot oqimi jarayonini "tezlashuvi"ga sabab bo'lib, bu jarayon "axborotlashgan jamiyat" iborasida o'z ifodasini topmoqda. Albatta, bu ijtimoiy turmushning barcha sohalarida keng imkoniyatlarni taqdim qilishi bilan birga ayni paytda, bugungi kun kishisini "axborot hujumi"dan himoyalashni taqozo etishi bilan birgalikda, zamonaviy yoshlarning yuksak intellektual salohiyatni talab etmoqda. Zero, O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Innovatsiya - bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalari, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak". Zamonaviy jamiyatimizning ijtimoiy sohalarining turli jabhalarida yuz berayotgan o'zgarishlar, islohotlar, yangilanishlar avvalo ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirishga yo'naltirilgan. Mazkur ijtimoiy voqealiklar, hodisalar ro'yobga chiqishining negizida, jumladan, yoshlarda ijtimoiy faollik xususiyatlarini shakllanishi muammosi ham yotadi.

Ijtimoiy faollik yoshlarni nafaqat ijtimoiylashuvining muhim bo'g'ini, balki shaxsning mustahkam irodasini shakllantirish, o'z-o'zini anglash va baholash kabi shaxs kamolotining omillari bilan tavsiflanadi. Yoshlar kelajak egalari ekanliklarini, ularni kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olgan holda, bugungi kunda inson texnika yutuqlaridan oqilona foydalanishining alohida madaniy qolipini yaratishi lozim. Taraqqiyotga xizmat qiluvchi bu manbalardan oqilona foydalanishni barchaga singdirish bugungi kun talabidir.

Iqtisodiyot va turizm fakulteti tyutori Husniddin ERGASHEV tayyorladi.

## Unutmas meni bog'im!

Insonga har kuni tinchlik-osoyishtalik va xotirjamlik kerak. Tinchligini yo'qotgan xonadon ham, mamlakat ham aslo xotirjam bo'la olmaydi. Tinchlik-xotirjamlik - taraqqiyot garovidir. Biz, azal-azaldan tinchliksevar xalqimiz. Aynan shu g'oya targ'ibiga bag'ishlangan buyuk milliy ma'naviy merosimiz bor. Ularning barida tinchlikning qadriga yetish targ'ib etiladi, urush esa batamom qoralanadi.

9-may sanasini Xotira va qadrlash kuni tarzida umumxalq bayrami sifatida nishonlab kelayotganimiz zamirida ham aynan ana shu ezgu maqsad yotibdi.

## XOTIRA - MUQADDAS, QADR - AZIZ...

Il jahon urushida O'zbekistonimizdan juda ko'p hamiyurtlarimiz urush maydonlaridan nogiron bo'lib qaytdi, 450 mingdan ortiq vatandoshimiz esa qonli janglarda halok bo'ldi.

Mustaqil O'zbekiston xalqi va davlati avval-boshdan tinchlik-totuvlik tarafdori sifatida maydonga chiqdi.

Umuman, dunyoqarashni, ya'niki tafakkurni milliyashtirish, milliy mafkurani shakllantirish yarim mustamlaka iskanjasidan qutulgan yosh davlat uchun shu qadar muhim ediki, bu - mamlakatning mamlakat, davlatning davlat bo'lib turishini ta'minlaydigan bosh omillardan sanaladi.

Shu ma'noda mustaqillikka erishganimizdan so'ng 9-mayni sho'ro talqinidagicha bayram qilish bizning ong-u shuurimizga mutlaqo mos kelmay qolgan edi. Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan har bir xalq uni o'zicha eslaydi, qurbonlarini o'zicha xotirlaydi, jangdan omon qaytgan, front ortida fidokorona mehnat qilgan va bugun safimizda yurgan faxriylarni ham shunday qadrlaydi.

O'z mustaqilligiga erishgan davlatlar ichida O'zbekiston buning chinakam namunasi ko'rsatdi. Xotira va Qadrlash kuni endi o'zgacha, aniqrog'i, milliy xususiyat kasb etdi. Bu bayramning mazmun-mohiyati butkul o'zgardir - u xalq xotirasi va insonni qadrlash kuniga aylandi.

Xalq xotirasi deganda kishi ko'z o'ngidan Vatan ibtidosidan buguniga qadar shu yurt, shu xalq deb kurashgan, kuch-qudrati, aql-zakovatini ayamagan, kerak bo'lsa, shu yo'lda jon fido qilgan ne-ne buyuk zotlar bir-bir o'tadi. Spitamen, Shiroqdan Turkon Xotun, Mahmud Torobiygacha, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bekdan Zahiriddin Muhammad Boburgacha, Jaloliddin Manguberdidan, Najmiddin Kubrogacha yodga tushaveradi.

Xotira va Qadrlash kuni chinakam milliy - umumxalq

## “Har tilni biluv...”

## CHET TILLARINI O'QITISH: E'TIBOR VA SAMARA

Til so'zlashish va butun dunyo insonlarining birlari bilan aloqada bo'lishlari va millatlararo munosabatlarni o'rnatishning asosiy vositasidir.

Hozirgi kunda ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Prezidentimizning ta'lim tizimi to'g'risidagi bir necha qaror va farmonlari joriy qilindi. Ayniqsa, Prezidentimizning talabalarga qulayliklar yaratish, ularga turar joy tashkil qilish va qiyinchiliklarni osonlashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlari talabalarimiz g'ayratiga g'ayrat, shijoatiga shijoat qo'shdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yana ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarga Chet el mamlakatlari ta'lim tizimidan o'zgacha uslubdagi yangiliklar kiritildi. Maktablarda "Chuqurlashtirilgan fanlar" o'qitila boshlandi. Yangi maktablar qurilib, zamonaviy uslubda jihozlandi. Fanlar bo'yicha o'quv kurslar ochilib, bolalar uchun to'garaklar tashkil qilindi. Bu yosh avlod uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Farzandlarimiz bu imkoniyatlardan to'laqonli foydalanib, o'qib-o'rganib, ishlab, chet davlatlarda malakali tahsil olib, aql va idroklarini o'stirib, professional kasb egalari sifatida tayyorlanishmoqda.

Ma'lumotlarga qaraganda, dunyoda 7000 ga yaqin til mavjud bo'lib, til jamiyat negizi hisoblanar ekan. Chunki har bir davlatning tili o'zi uchun aziz va muqaddasdir. Til davlatning bosh bo'g'inidir, shu bilan birga "Til bilgan el biladi" deb ham bejiz aytishmagan ota-bobolarimiz. Tili va madaniyati boshqa bo'lgan insonlar bilan tanishish, ular bilan do'stlashish, fikr-mulohazalar va bilim almashish suv tagidan oltin topish bilan tengdir.

Bugungi kunda ham aynan til o'rganish, farzandlarni tilga qiziqtirish zamon talabiga aylandi desak xato bo'lmaydi. Shuni aytish lozimki, tillar orasida ingliz, rus, fransuz, italyan, nemis va yapon tillarini o'zlashtirish boshqa tillarga nisbatan ko'proq amalga oshmoqda. Ayniqsa, ingliz tili hozirgi kunda ko'plab davlatlarning rasmiy tiliga yoki ikkinchi tiliga aylanib, eng kop insonlarni o'ziga jalb etdi.

Ta'bir joiz bo'lsa, bu tiling zarralari butun dunyo ko'chalari-yu, shaharlari tomon sachradi. Agar inglizchani

bayramiga aylandi. Shu kuni O'zbekistonning barcha qabristonlaridan ziyoratchilar arimaydi.

Bu bayramda ikkinchi jahon urushida halok bo'lganlar xotirlanadi, Afg'oniston urushida halok bo'lganlar sho'ro siyosatining begunoh qurbonlari sifatida eslanadi, umuman, o'tganlar ruhi yodga olinadi, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining xotirasi oldida hurmat bajo keltiriladi.

Ikkinchi jahon urushi tugaganiga 79 yil to'lyapti. Bu bir insonning o'rtacha



umriga teng. Oramizda shu yoshdan katta bo'lganlarga urush davrini ko'rgan. Biroq, g'alabaga erishilganidan keyingi yillar oson kechdi, deb o'ylaysizmi? Yoki bu jang-u jadallar asoratlari bir umr odamlar qalbida chandiq bo'lib qolmadimi? Kim ham urushda halok bo'lgan jigarini unuta oladi?

Inson bor ekan, xotira - muqaddas. Hech kim, hech narsa esdan chiqmaydi. Xalq bugungi tinch-xotirjam zamonni asrab-avaylash, qadriga yetish uchun ham urushni, uning qahramonlarini, g'alabaga munosib hissa qo'shgan hech bir kishini xotirasidan forig' qilmaydi.

Kunlar kunlarni, yillar yillarni quvib, bu ko'hna charxi falak shu sirli koinot yaralganidan beri aylangani-aylangan. Ayni shu insonning abadiy - boqiy emasligi ong-shuurimizda xotira degan tushunchani paydo qilgan bo'lsa, ajab emas. Negaki xotiragina o'tganlarni eslash, bugunni kechaning yodi bilan to'ldirish, ya'ni uni yanada boyitish imkonini beradi. Xotira va qadrlash tushunchalari - mohiyatan bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Bayramni yangicha nomlashda ular o'rtasidagi ana shu uzviylik asos qilib olingan.

Xotira va Qadrlash kuni - dunyoqarashimizdagi ana shunday tamoman yangi falsafiy hodisa. Mustaqil O'zbekiston siyosatidagi bu falsafiylikni sezmaslik, tan olmaslik, targ'ib qilmaslik mumkin emas.

Xotira va Qadrlash kunini munosib nishonlashdan ko'zlagan bosh maqsadimiz - Vatan himoyachilarini xotirlash, oramizdagi fidoyi insonlarning, tinchlikning qadriga yetish, urushni qoralash, tinch-osoyishta yashayotganimiz, turmush farovonligini ta'minlash uchun ter to'kib, unumli mehnat qilayotganimizning shukronasini qilishdan iborat.

Bu har qanday kishini ma'nagan rag'batlantiradi, uni yashashga, yaratishga, elu yurtga sadoqat va qat'iyat bilan xizmat qilishga undaydi.

Zero xotira hamisha muqaddas, qadr azizdir.

**Diifuza A'ZAMOVA,**  
Fakultetlararo chet tillari kafedrasini o'qituvchisi.

bilsangiz, istagan davlatningizda muloqot qila olasiz va ishga joylashishingiz ham mumkin bo'ladi qabilidagi tushunchalar insonlar tafakkuriga isbot talab qilmas haqiqatdek o'rnatildi. Zamonaviy dunyoda inliz tili boshqa tillarga nisbatan turli mamlakatlarda yashovchi insonlar tomonidan eng ko'p qo'llab kelinayotgan til sifatida birinchi ekanligi barchaga ma'lum.

Ingliz tilini xalqaro til maqomiga olib chiqqan bir qancha omillar mavjud. Masalan, ko'plab dori-darmon nomlari va ularning qo'llanilish usullari, internetdagi ko'plab ma'lumotlar, aynan shu tilda yozilgan. U bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, ilm-fan, biznes, meditsina, ta'lim, ilmiy izlanishlar va texnologiya kabi sohalarida yetakchi ro'l o'ynaydigan til hisoblanadi. Yangi davrda har bir soha vakillariga yangicha vazifalar va ma'suliyatlarni yukladi.

Zamonaviy texnologiyalar sababli ingliz tilini o'qitish metodlari sezilarli darajada o'zgardi. Bundan tashqari, televideniya ham ko'pgina telekanallarda bolalar uchun inliz tilini o'rgatish uchun multfilmlar, ko'ngilochar ko'rsatuvlar uzluksiz ravishda qo'yib borilmoqda. Bu bolalar uchun til bilan tanishish, hech bo'lmaganda boshlang'ich ko'nikmalarni olishga yordam beradi. Texnologiyalar asta-sekinlik bilan an'anaviy o'qitishning o'rnini egallamoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jadal sur'atlar bilan rivojlanib boryotgan zamonda yashar ekanimiz, biz ham shu zamonga mos va xos bo'lishimiz kerak. Inson qilgan ishni, albatta, boshqa inson ham uddalay oladi. To'g'ri, til o'rganish mushkul ish bo'lishi mumkin. Ammo shu bilan birga bu juda zavqli mashg'ulot. O'zingiz o'ylab ko'ring, qo'shimcha bir tilni bilsangiz davlatlararo sayohat qilishingiz, biror davlat oliygohida tahsil olishingiz, ishlashingiz va eng muhimi ilmi inson darajasiga chiqishingiz mumkin. Shu bilan birga sizga til o'rganishingiz uchun qulayliklar yaratib bergan jannatmakon yurtningizning mavqeyini yanada yuksakroqqa ko'tarish imkonini muhayyo bo'ladi. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish uchun yoshlarning bilimiga bilim qo'shib, ma'naviyatini yuksaltirish, qobiliyatlarini oshirish va chet el davlatlarining tili va sinalgan ko'nikmalarini o'rganishga chorlash lozim. Bu barchamiz uchun birdek taalluqlidir.

**Dilnoza ALAUDINOVA,**  
Fakultetlararo chet tillari kafedrasini katta o'qituvchisi p.f.f.d. (PhD).



Termiz davlat universitetida bo‘lib o‘tgan she‘riyat kechalarida, nafaqat O‘zbekistonda, balki mintaqada o‘z ijodi bilan necha minglab qalblardan o‘rin egallagan adiblar – Surxon farzandlari bilan ijodiy uchrashuvlar talabalar uchun unutilmas hodisa bo‘ldi. O‘zbekiston xalq shoirlari Usmon Azim, Sirojiddin Sayyid, atoqli adib Mirzo Kenjabek hamda taniqli shoir Shodmonqul Salomning adabiyot, ijod, shaxsning kamolot bosqichlari, ilm olishga oid qimmatli suhbatlarini O‘zbek filologiyasi fakultetining bir guruh amaliyotchi talabalari ham maroq bilan tingladi. Ulug‘larga yondoshib, qalam yo‘ndi va o‘z taassurotlarini xabar shaklida bayon etdi...

Tahririyat

MA'RIFAT  
ULASHIB...

Adabiyot kunlari

Termiz davlat universitetida O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim bilan “Ma‘rifat ulashib” loyihasi doirasida ijodiy uchrashuv tashkil etildi.



Usmon Azim tug‘ilgan yurti Surxondaryo viloyatining qadimiy Boysunida milliy qadriyatlar havosi bilan toblangan inson. U nafaqat nazmda, balki nasr va dramaturgiyada ham o‘zining alohida o‘rniga ega.

Ijodiy uchrashuv davomida Usmon Azim hayot va ijod yo‘li, ustozlar o‘g‘itlari, shoir yuragining hamisha uyg‘oqligi haqida so‘zlashdi. Shoir she‘rlaridan namunalar o‘qib berish bilan birga, ularning yaratilish tarixi bilan ham o‘rtoqlashdi.

Xalqimiz e‘zozidagi, bugungi adabiyotimizning zabardast ijodkorlaridan bo‘lgan shoirni ishtirokchilar o‘zlari uchun qaytadan kashf etishdi, savollariga javoblar olishdi. Yakunda talabalar sevimli ijodkoridan dastxat olish, unutilmas onlarni muxrlash uchun rasmga tushish baxtiga ham muayassar bo‘lishdi.

Nafisa SATTOROVA,  
O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi.

Shayx Najmiddin KUBRO hikmatlari

“ENG YAXSHI DO‘ST ILM EKAN”...

Lavhdagi najot

Husni xulq (chiroyli xulq) dan ko‘ra yaxshilik qo‘shadiganroq, hasaddan ko‘ra yomonlik ustiga yomonlik qo‘shadiganroq narsani ko‘rmadim.

Ibodatlarning eng afzali farzlarni ado qilish, odatlarning eng ma‘quli va chiroylisi esa gunohlardan, odamlarga ozor berishdan tiyilish ekan...

To‘g‘ri so‘zlikdan ko‘ra go‘zalroq ziynatni ko‘rmadim.

Ko‘rdimki, eng noyob ne‘mat rostgo‘ylik va qahramonlik, eng og‘ir og‘riq esa yomon va munofiq do‘stlar ekan.

Ko‘rdimki, o‘z-o‘zini tarbiyalay olgan va shahvatlardan tiyila olgan kishi eng kuchli ekan.

Ko‘rdimki, eng yaxshi do‘st ilm ekan... aqlni esa yaxshiliklarga chorlashda ko‘rdim..

Ko‘rdimki, vaqtini “esiz”, “qaniydi”, “koshkiydi”lar bilan o‘tkazgan kishining umri eng qisqa umr ekan.

Muvaffaqiyatni sa‘y-harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa loqaydlik va dangasalikda, baloni tilda, halovatni esa sukutda ko‘rdim.

Hamma fuzalo-yu fusaho, munajjim-u bilimdonlarni bir chivin qanotini yaratishdan ham ojiz, boshi aylangan, nochor... o‘z ojizligi va nuqsonini tan olgan ko‘rdim...

Qiziquvchini (ko‘ngil bergan) mashg‘ul, zohidni esa bekor-u forig‘ xohlovchini izlayotgan, da‘vogarni yolg‘onchi ko‘rdim.



TERDUDA – “ADABIYOT HAFTALIGI”

Termiz davlat universitetida Surxon elining farzandi, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid bilan ijodiy uchrashuv tashkil etildi.

Rektor Abduqodir Toshqulov tadbirni ochib berar ekan, shoirning mazmunli ijod va hayot yo‘li haqida to‘xtalib, uning she‘rlarida o‘rganish lozim bo‘lgan mavzular juda ko‘p ekanligini e‘tirof etdi.

Termiz davlat universitetida “Pegas” she‘riyat to‘garagi doirasida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, Bobur nomli xalqaro mukofot sohibi, atoqli adib Mirzo Kenjabek hamda taniqli shoir – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, “Do‘stlik” ordeni sohibi Shodmonqul Salom ishtirokida ijodiy uchrashuv tashkil etildi.

Unda universitet rahbariyati, professor-o‘qituvchilar hamda filologiya fakulteti talabari ishtirok etdi. Uchrashuvda ijodkorlar o‘z



Vatan, Ona, tinchlik, sadoqat, muhabbat kuychisi S.Sayyid talabalar bilan samimiy suhbat chog‘ida bolalik yillari, adabiy muhit, she‘rlarining yaralish tarixi haqida so‘zlab berdi.

Uchrashuv yakunida shoir talabalar uchun universitet kutubxonasiga o‘z kitoblaridan sovg‘a qildi.

Sarvinoz  
JUDOYBERDIYEVA,  
O‘zbek filologiyasi  
fakulteti talabasi.

ADABIY-MA'RIFIY  
UCHRASHUV



hayoti bilan bog‘liq xotiralar haqida o‘rtoqlashar ekan, Surxon elining ko‘zga

ko‘ringan ijodkorlari Shukur Xolmirmirzayev, Shafaot Rahmatullo Termiziy, Usmon Azim, Sirojiddin Sayyid ijodiga ham to‘xtalib o‘tishdi. Shuningdek, har ikki shoir tomonidan o‘qilgan ijod namunalar talabalar tomonidan iliq kutib olindi.

Adib Mirzo Kenjabek o‘zining eng sara asarlarini talabalar foydalanishi uchun universitet kutubxonasiga sovg‘a qildi.

Nilufar NE‘MATOVA,  
O‘zbek filologiyasi  
fakulteti talabasi.



<p>ISSN:20199203</p> <p>20199203</p>	<p><b>TERMIZ UNIVERSITETI</b></p>		<p>Gazeta Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 2018-yil 17-martda 11-004-raqam bilan qayta ro‘yxatga olingan.</p>	<p><b>Mas‘ul kotib:</b> Alibek Omonturdiyev</p>
	<p><b>Bosh muharrir:</b> Shofiyev Obid Baxtiyorovich</p>	<p><b>Hamkorimiz:</b> Termiz davlat universiteti</p>	<p>Gazeta oyida ikki marta chop etiladi. Tahririyat manzili: Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy. Tel.: +99893-222-20-21. Elektron manzil: termizuniversiteti@umail.uz</p>	<p><b>Navbatchi muharrir:</b> Nasiba Xo‘janova</p>
<p><b>Muassis:</b> «Termiz davlat universiteti nashr-matbaa markazi» MCHJ</p>	<p><b>Tahrir hay‘ati:</b> Abduqodir Toshqulov Bekpo‘lat Umurqulov O‘ral Xoliyovov Zarifa Annayeva Nuriddin Achilov</p>	<p>Bahosi kelishilgan narxda. Hajmi 2 bosma toboq. Qog‘oz bichimi A-3. Adadi – 1000. Buyurtma №G-150</p>	<p>Gazeta «Termiz universiteti» tahririyatining kompyuter markazida terildi va sahifalandi.</p>	<p><b>Sahifalovchi:</b> To‘ra Rahmonqulov</p>
<p>Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.</p>		<p><b>Bosmaxona manzili:</b> Termiz shahri, Shukrona ko‘chasi, 19-A-uy. Gazeta «Surxon tongi», «Заря Сурхана» birlashgan tahririyati bosmaxonasida chop etildi.</p>		